

UMUMTA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARIDA NIZOLI VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Maripova Asal Botiraliyevna

“University Business and Science” universiteti

Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi

2-bosqich magistanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada butun dunyoda bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularni turli zo'rvonliklar ta'siridan muhofazalash, axborot xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilganligi, ayniqsa, YUNESKO tomonidan qabul qilingan “Bola huquqlari konvensiyasi”da o'sib kelayotgan avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda tolerantlik madaniyatini rivojlantirishga katta ahamiyatligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etishi ifodalangan.*

Kalit so'zlar: *o'quvchilar, ijtimoiy kompetentlik, hissiyotlari va xulq-atvorini boshqarish, o'smirlarda, o'spirinlarda konfliktologik madaniyat.*

KIRISH

Dunyoda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar asosida konfliktologik madaniyatni shakllantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilarda affilyatsiya motivini qaror toptirish orqali samarali muloqotga tayyorlashning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirish, refleksiv yondashuv asosida o'z hissiyotlari va xulq-atvorini boshqarishning pedagogik-psixologik asoslarini aniqlashtirish, o'quvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillash alohida dolzarblik kasb etadi. Ilmiy tadqiqotimizning ob'ekti bo'lmish 10-11-sinf o'quvchilari, ya'ni 16-17 yoshli o'smirlarda, o'spirin yoshlarda konfliktologik madaniyatni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida o'rin egallagan.

Ma'lumki o'smirlik, o'spirinlik davri shaxs shakllanishi jarayonida muhim yetakchi o'rin egallaydi. Ayniqsa, shaxsning o'z-o'zini anglashi o'z-o'ziga baho berishi kabi muhim jihatlarning shakllanishi amalga oshadigan ushbu davrda bola shaxsiga qo'yiladigan talablar bilan unning ichki imkoniyatlari o'rtasida munosiblik bo'lishiga erishish juda muhimdir [4].

Bu yosh davrda bolalardagi o'z-o'ziga ishonchsizlik xususiyati shakllanishining oldini olish, aniqlangan kamchilikni o'z vaqtida korreksiya qilish bolalarda faollikni shakllantirishda asosiy talab hisoblanadi. Bu hol bolalarda yuzaga keladigan turli nizolarni to'g'ri tahlil qilishga va ularni imkon darajasida bartaraf etishga o'rgatishni taqozo etadi. Yuqoridagi holatlar o'smir yoshidagi bolalarda konfliktlar xususiyatlari va ularni bartaraf

etish imkoniyatlarining pedagogik va psixologik jihatdan tadqiq etish shu kunda o'ta muhim muammolardan biri sanaladi.

Ba`zan, o`smirlik davri xususiyatlarini yaxshi bilmasliklari sababli, ko`pchilik hollarda oilada ota-ona va farzand, o`quv jarayonida o`qituvchilar bilan o`quvchilar o`rtasidagi turli xil ziddiyatlar uchrab turadi.

O`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi ziddiyat turli xil sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin. Umuman olganda, noto`g'ri qo`yilgan maqsadlar, manfaatlar va ijtimoiy rol pozitsiyalari qarama-qarshiligi; raqiblarning psixologik nomuvofiqligi; kommunikativ madaniyat darajasining pastligi va boshqalar har qanday shaxslararo konfliktlarga sabab bo`la oladi [5]. Ammo, amalda, samarali izlash jarayonida maktabdagi ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish usullari, ushbu sabablarni aniqlab olish va ularni ko'rib chiqish pedagogik faoliyat sharoitida mantiqan to'g'ri keladi. Intizomga oid bo'lgan, o`quvchilar va ayrim hollarda o`qituvchilar tomonidan sodir etiladigan ruhiy zo`riqish hamda konfliktlar, ta'lim jarayonida maktab intizomiy qoidalari va tartibining buzilishiga doir tipik holatlarning statistik manzarasini tavsiflash muhim ahamiyatga molikdir.

Didaktik hamkorlik sohasidagi konfliktlar orasida pedagogning o`smirlar bilimini baholashdagi xatolari salmoqli o`rin egallaydi. Chunonchi, o`qituvchi o`quvchilarning bilimini noto`g'ri baholaganda har ikki tomon orasida kuchli konflikt sodir bo'ladi. O`quvchilarning har xil predmet o`qituvchilarining metodik tayyorgarligiga bo'lgan e'tirozlari ko'pincha to'g'ri bo'lib chiqadi.


O`quvchilarning bu sohadagi e'tirozlari quyidagicha: tushuntira olmaslik; sistemasiz, palapartish bayon; tilning o`rinsiz murakkabligi; takrorlashning yo`qligi; materialni quruq bayon qilish; mavzuni hayot bilan bog'lay olmaslik; xo`ja ko`rsinga "mavzuni" bajarish; predmetga qiziqish uyg'ota olmaslik; xolis baholay olmaslik; arzimagan javobga yuqori baho qo'yish; barcha o`quvchilarga faqat "3" baho qo'yish va hokazo.

O`smirlar o`qituvchilar bilan bo`ladigan o`zaro munosabatlari jarayonida maktabning birinchi pog`onasida ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o`quvchilariga nisbatan anchagina farq qiladi. Bunday ziddiyatlarning o`smir yoshi bilan bog'liq jihatlari nimalardan iborat? O`smir yoshining oliy o`quv yurti pedagogika va psixologiyasida o`qitiladigan tavsifnomasiga murojaat qilamiz. Pedagogika nazariyasining tegishli bo`limida o`smirlik yoshi bolalik va katta yosh holatining oralig'ida ekanligi qayd etiladi. Pedagogika qo'llanmasi mualliflari "o`prilishli" (krisisli), "qiyin", "o'tish", "konfliktli", "og'riqli" kabi terminlarni ko'p qo'llaydilar. O`quvga bo'lgan qiziqishning sustligi o`smir uchun xos. U romantik tuyg'ularga berilgan bo'ladi. O`smirda jinsiy bilimlarga bo'lgan qiziqish uyg'ongan bo'ladi. U o`z kuch va qobiliyatlariga yuqori baho beradi. Kattalarga taqlid qilish, ularga o`xshashga harakat qilishga intiladi[3]. A.S.Makarenko fikricha, o`smirlar – bu haqiqiy ritsarlar. Ular qo`rqmasdan pedagog orqasidan o`zini o`tga ham suvga ham uradi, agar u haqiqiy ustoz bo`lsa.

Psixologlar o`z navbatida, kim boshlang'ich sinfdan yaxshi o`qigan, tartibli bo`lsa, o`smir yoshiga kelib qo`pol, tez intizomsiz bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Asosiy qism. Boshlang'ich sinfdagi o'qituvchi o'rnatgan tartib – intizomga so'zsiz bo'ysunish o'rnini o'z insoniy qadr – qimmatiga ortiqcha baho berish tuyg'usi egallaydi. Ilgari boshlang'ich sinflarda o'qituvchining so'zidan hafa bo'lmagan o'smir yuqori sinf o'qituvchisining aynan shu so'zidan norozi bo'ladi [1]. O'smirlarda o'zligini anglash kattalar bilan bo'lib o'tadigan munosabatlarning yomonlashuvi bilan o'zaro almashinib turishi kuzatiladi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun mo'ljallab chop etilgan qo'llanmalarda qayd etilgan o'smirlar xarakter xususiyatlariga doir umumiy tasavvurlar ana shulardan iborat. Ko'p sonli tadqiqotlarda o'smirlarning ijtimoiylashuvi masalasida qimmatli ma'lumotlar uchraydiki, ularga asoslangan holda o'qituvchi va o'quvchilar munosabatlarida yuz beruvchi konfliktlarni pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri hal etish mumkin bo'ladi.

Bu sohada o'smirlarning muomalaga kirisha olish tiplariga doir tadqiqot natijalari qiziqishga loyiqdir. Bularning uch turi farqlanadi [1-rasmga qararng]:



Agar birinchi tip konfliktli sharoitda ruhiy zo'riqishni bir o'zi boshdan kechiradigan bo'lsa, ikkinchi tip, ayniqsa, uchinchi tipga mansub o'quvchilarda tabiiy ravishda tashqi himoya to'sig'iga ega bo'ladilar. O'smirlar o'qiydigan sinflarda konfliktga kirishuvchilar soni keskin kengayadi, chunki endi ular boshlang'ich sinfdagidek bir o'qituvchi bilan emas balki, o'nlab – yigirmatalab o'qituvchilar bilan muloqotda bo'ladilar, demak, konfliktga kirishuvlari ham mumkin.

Shuni alohida qayd etish kerakki, o'smir – o'quvchilar bilan predmet o'qituvchilari orasida konfliktsiz hamkorlik umuman uchramaydi. Bu o'smirlar yaxshi o'qituvchilar masalasida omadsizlar degan gap emas. Gap shundaki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarda ham o'quvchilardagi kabi ruhiy zo'riqish uchrab turadi.

Intizomga oid bo'lgan, o'quvchilar va ayrim hollarda o'qituvchilar tomonidan sodir etiladigan ruhiy zo'riqish hamda ziddiyatlar, ta'lim jarayonida maktab intizomiy qoidalari va tartibining buzilishiga doir tipik holatlarning statistik manzarasini tavsiflash muhim ahamiyatga molikdir. Salbiy xulq – atvorga doir faktlar orasida o'qituvchi tomonidan sodir bo'ladigan holatlar farqlanadi.

Quyida o'qituvchining nopedagogik muomalasi natijasida sodir bo'ladigan konfliktlarga to'xtalamiz: O'qituvchilar sinfni boshqara olmaydi, bilish jarayonini to'g'ri tashkil eta olmaydi, barchaning diqqatini jalb eta olmaydi. Maktab amaliyotidan bunga doir misollarni keltiramiz.

O'qituvchi dars boshlanishi bilan o'quvchilardan hech kim uy vazifasini bajarmaganligini payqadi, hamma unga e'tibor bermay bir – bir bilan gaplashib o'tirmoqda. O'qituvchi ayol yig'lab yuboradi va eshikni qattiq yopib, sinfdan yugurib chiqib ketadi...

Geografiya darsi boshqa fanlarga nisbatan yaxshi tashkil etilmagan edi. O'quvchilar darsini ko'pincha tashlab chiqib ketadigan o'qituvchi ustidan kulishardi...

Chizmachilik o'qituvchisi hech qanday metodikaga ega emas, o'rgata olmas, o'quvchilardan qo'rqardi...

Ingliz tili darsida o'qituvchi tartib o'rnata olmas, tartib o'rnatishga urinmas edi. O'quvchilar undan "ikki" qo'ymaslikni iltimos qilishar va buning evaziga gul taqdim qilishlarini va'da qilishardi. U kulimsirab, rozi bo'lardi...

Ashula o'qituvchisi sinfdagi to's – to'polonga ahamiyat bermas, unga hech kim quloq solmas, u esa hotirjam dars o'tardi, xuddi hamma narsa joyidadek...

O'quvchilarning tartibsizligini ko'rgan o'qituvchi qattiq baqirar, mushti bilan stolni urar, ota – onasi yoki maktab direktorini chaqirish bilan tahdid qilardi. Hech narsani o'zi hal qila olmasdi...

Pedagoglarning kasbiy no'noqliklari haqida cheksiz fragmentlarni keltirishimiz mumkin. O'quvchilarning o'qituvchilarga bo'lgan munosabatlari ham bundan qolishmaydi.

O'smirlar va o'qituvchilar orasida yuz beruvchi ziddiyatlarning oldini olish mumkinmi? Albatta, mumkin. O'qituvchining mukammal kasbiy tayyorgarligi, uning har qanday ruhiy zo'riqishga qarshi relaksatsiya – bo'shashish holatini o'zida mashq qildirgan bo'lishi katta ahamiyatga egadir. Didaktik hamkorlik sohasidagi konfliktlar orasida pedagogning o'smirlar bilimini baholashdagi xatolari salmoqli o'rin egallaydi. Chunonchi, o'qituvchi o'quvchilarning bilimini baholaganda har ikki tomon orasida kuchli konflikt sodir bo'ladi. Quyida ana shunday ziddiyatlar sabablarini sharxlashga o'tamiz.

O'quvchilarga baho qo'yish. O'quvchilar ko'pincha yozma hamda og'zaki javoblarini past baho qo'yildi deb hisoblaydilar. Ayniqsa muntazam ravishda past baho qo'yilganda o'quvchilar g'oyatda g'azablanishadi, fan va o'qituvchiga nafrat bilan qaray boshlaydilar. O'zaro kelishmovchilikning o'ta jiddiy tus olishi o'quvchining o'zini himoya qila olish darajasi va uni sinf qo'llab – quvvatlashiga bog'liq bo'ladi. O'quvchi yozma ishini bo'yagan, xati xunuk bo'lgani uchun bahosining tushirilishiga toqat qila olmaydi. Adolatsizlik bilan qo'yilgan past baho atrofiga har xil rasmlar chizadi, o'qituvchi sha'nini haqoratlovchi so'zlar yozadi.

O'quvchilarda, ayniqsa, bir xil xatolar bo'la turib, yozma ishga har xil baholar qo'yilishi ko'proq norozilik tug'diradi. Ko'p hollarda o'qituvchi o'quvchilarga bahoni ijobiy yutuqlarga erishish uchun yo'naltiruvchi vosita sifatida emas, balki kamsitish, jazolash maqsadida qo'yishadi.

O'qituvchilarning farzandlariga ko'tarib baho qo'yish ham konflikt tug'ilishiga sabab bo'ladi. O'qituvchining qasoskorligi o'quvchilarda ayniqsa, norozilik tug'diradigan xunuk holdir.

O'smirlar pedagogik talablarni ongli va sidqidildan bajarishlari uchun talab mavzuiga nisbatan o'qituvchi va o'quvchining bir xil yo'l tutishi zarurdir, u bilish nuqtai - nazaridan qiziqarli bo'lishi yoki amaliy jihatdan foydali bo'lishi zarur, yoxud jamoa faoliyat jarayonini qulaylashtirish uchun zarurdir, aks holda talab samarasiz bo'lib qoladi [3].

Katta yoshdagi o'smirlarga nisbatan o'qituvchi homiy yoki tarbiyachi holatida turadi. Bunday holat shuni taqozo qiladiki, o'qituvchi faoliyatining shunday sohalarida, ya'ni bevosita aralashuv kam samara beradigan sohalarda o'quvchilarning o'zaro harakatlariga alohida e'tibor berish lozim, bu esa pedagogdan katta yoshdagi o'smirlarga o'ziga xos homiylik qilishni talab etadi, bu avvalo ularning bu sohadagi ahvoli yaxshi bo'lishi haqida bevosita g'amxo'rlikni o'z ichiga oladi. Shu munosabati bilan o'qituvchilarning o'quvchilar bilan munosabati xarakteri ko'p jihatdan pedagoglarning katta yoshdagi o'smirlarning o'ziga xos bo'lgan katta bo'lishga intilishdan iborat yosh xususiyatini qanchalik hisobga olishiga bog'liq.

Yuqori sinflarda o'qituvchining holati konsultant, ya'ni muayyan sohada maslahatlar beruvchi mutaxassis so'zi bilan ifodalanishi mumkin. O'quvchilarga ta'sir ko'rsatish mazmuni o'qituvchi ularning faoliyati bilan bog'liq ravishda beradigan tavsiyalar bilan belgilanadi.

O'qituvchi bilan o'quvchi obyektiv ravishda turli avlod vakillari hisoblanadilar. Har bir yangi avlod oldingi avlodlarga nisbatan birmuncha yangi sharoitda hayotga kirib keladi. O'quvchilarning o'zlari ham avloddan - avlodga o'zgarib boradilar. Buning oqibatida har bir yangi avlod ota merosini passiv ravishda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradilar. Bu o'zgartirish katta avlodlar bilan doimiy muloqotda bo'lgandek sodir bo'ladi. O'qituvchi yuqori sinf o'quvchilari bilan muloqot yo'li bilan muomala qilganda o'tmish g'oyaviy merosining muhim ahamiyatini tasdiqlab borishi lozim. Bunday holda u keng muammolar bo'yicha maslahatchi bo'lib qoladi va yuqori sinf o'quvchilariga samarali ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonidagi islohotlarning yangi bosqichida o'qituvchi va uning mahorati masalasiga alohida urg'u berilmoqda. O'qituvchi ta'lim jarayoniga innovatsiyani bevosita joriy etuvchi va innovatsion jarayonni tashkillashtiruvchi sub'yekt sifatida baholanmoqda. Pedagogik jarayondagi innovatsiya esa ta'lim va tarbiyaga oid barcha yangiliklarni amaliylashtirish, shu asosda ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashni taqozo etadi. Mana shunday ta'lim tizimiga oid innovatsion yo'nalishlardan biri – pedagogik nizolar va ularni bartaraf etish omillari sanaladi.

Mashhur rus olimlardan A.N.Samarin, Ye.I.Stepanov, V.N.Shalenko konfliktologiya sohasining nazariy asoslariga, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o'ziga xosliklari, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning

huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar, shu jumladan pedagogik konfliktlar masalalari ko'pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi [2].

M.M.Rybakova tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, har qanday ijtimoiy nizolar kabi pedagogik nizolarning kelib chiqishida ham boshlang'ich asos – bu vaziyat sanaladi[6].

Nizoli vaziyat – bu ob'yektiv narsalar shaxs tomonidan sub'yektiv qabul qilingan pedagogik jarayonning murakkab ob'yektiv-sub'yektiv holati bo'lib, u ishtirokchilar uchun ahamiyatli hisoblanadi.

V.I.Andreyev nizoli vaziyatlar “ikki yoki undan ortiq tomonlar – ishtirokchilarning yopiq yoki ochiq o'zaro kurashishi bo'lib, ularning har biri o'zlari uchun ahamiyatli bo'lgan muammoni yechish maqsadi, sabablari, vositalari va usullariga ega” ekanligiga e'tiborni qaratadi [9].

V.A.Suxomlinskiy pedagogik nizolarni “maktab faoliyatiga xos bo'lgan jiddiy, murakkab va ko'ngilsiz hodisa” deb ta'riflaydi. Ya'ni “pedagog va bola o'rtasidagi, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi, pedagog va jamoa o'rtasidagi nizolar – maktab faoliyatiga xos bo'lgan jiddiy, murakkab va ko'ngilsiz hodisadir. Nizo ko'pincha o'qituvchining o'quvchi shaxsi to'g'risida noto'g'ri o'ylashi sababli kelib chiqadi. Bola shaxsi to'g'risida ijobiy fikrda bo'lish pedagogik nizolar kelib chiqishining oldini oladi. Nizolarga yo'l qo'ymaslikka erishish – o'qituvchining pedagogik zukkoligining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Nizoni oldini olib pedagog jamoaning tarbiyaviy kuchini saqlaydi va hosil qiladi” deb ta'kidlaydi [8].

Xulosa. Shunday qilib, pedagogik nizolar har bir o'quvchi va o'qituvchi pedagogik faoliyatining uzviy ajralmas qismi va tarkibi bo'lib, o'qituvchi pedagogik nizolar nazariyasi va amaliyoti bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga hamda konfliktologik kompetentlilikka va konfliktologik madaniyatga ega bo'lishi lozim.

Nazariy tahlil natijalari nizolar, pedagogik nizolar va ularning mohiyati masalasi pedagogika, psixologiya hamda boshqaruv sohalarida o'ziga xos dolzarblik kasb etuvchi muammolardan biri ekanligini to'la tasdiqladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ammeter, A. P., Douglas, C., Gardner, W. L., Hochwarter, W. A., & Ferris, G. R. 2002. Toward a political theory of leadership. *Leadership Quarterly*, 13: 751–796.
2. Balfour, D., & Wechsler, B. 1990. Organizational commitment: A reconceptualization and empirical test of public–private differences. *Review of Public Personnel Administration*, 10: 23–40.
3. Barker, J. R. 1993. Tightening the iron cage: Concertive control in self-managing teams. *Administrative Science Quarterly*, 38: 408–437.
4. Baron, R. A. 1996. Interpersonal relations in organizations. In K. R. Murphy (Ed.), *Individual differences and behavior in organizations*: 334–370. San Francisco: Jossey-Bass.

5. Batt, R., & Appelbaum, E. 1995. Worker participation in diverse settings: Does the form affect the outcome, and if so, who benefits? *British Journal of Industrial Relations*, 33: 353–378.

6. Berman, E., & West, J. 1998. Productivity enhancement efforts in public and nonprofit organizations. *Public Productivity and Management Review*, 22: 207–219.

7. Bolman, L. G., & Deal, T. E. 1991. *Reframing organizations: Artistry, choice, and leadership*. San Francisco: Jossey-Bass.

8. Anvarovna A. S. CONSTRUCTIONS (MODELS) OF SOCIAL INTELLIGENCE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 169-172.

9. 6. Anvarovna A. S. CONSTRUCTIONS (MODELS) OF SOCIAL INTELLIGENCE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 169-172.